

FONETIK HODISALARGA ALOQADOR LINGVOPOETIK VOSITALAR

U.P.Lafasov

(O'zDJTU) dotsent, f.f.n.

0009-0002-0557-3476

lafas1963@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu ("Fonetik hodisalarga aloqador lingvopoetik vositalar") maqolada Abdulla Qodiriy romanlarida qo'llagan fonetik hodisalarga aloqador lingvopoetik vositalar haqida ma'lumot berilgan. Turkiy tillar fonemalar torlik, kenglik, qattqlik, yumshoqlik va ikki undoshning qator kelish holatlari bilan o'zga tillardan farqlanishi aytib o'tilgan. Jahon til ilmidagi ilk bor qiyosiy tilshunoslik va chog'ishtirma tilshunoslik turkiy tilda ijod qilgan olimlar tomonidan dalillar bilan asoslanganligi tavsiflangan. Turkiy tillardagi unli va undosh tovushlar o'zaro uyg'unlik tizimi asosida singormanizm qonuniyatiga bo'ysunishi izohlangan. Inson tanasining bo'g'iz qismida joylashgan nutq a'zolarining ishlash faoliyati jahonda birinchi bor ulug' olim Ibn Sino tomonidan ilmiy asoslab berganligi sharhlangan. Har qanday milliy tilning tovush tizimi o'zgacha, ana shu o'ziga xoslik va jozibadorlikka tayangan Abdulla Qodiriy milliy tilimizdagi lingvopoetik asoslarni yuqori darajaga olib chiqqanligi qayd etilgan. Yozuvchi ijod qilgan matnlarda fonemalarning lingvopoetik tabiatiga aloqador fonetik hodisalar misollar bilan dalillangan holda ochib berilgan.

Kalit so'zlar: fonetik hodisalar, lingvopoetik vositalar, fonema, qiyosiy tilshunoslik va chog'ishtirma tilshunoslik, singormanizm, nutq a'zolari.

Turkiylarning buyuk tilshunosi, jahon til ilmidagi **qiyosiy tilshunoslik** asoschisi, tildagi tovush tizimini yaxshi bilgan olim Mahmud Koshg'ariy o'z asarida turkiy tillarda unli va undoshlar tovushlarining o'ziga xos nozik jihatlari batafsil yoritgan¹. Turkiy tillardagi fonema²larda torlik, kenglik, qattqlik, yumshoqlik, ikki undoshning qator kelish³ holatlari borligini dalillar asosida izohlab bergan.

Dunyo til ilmidagi **chog'ishtirma tilshunoslik** asoschisi bo'lgan Alisher Navoiy hazratlari o'z asarida jahondagi barcha tillarga asos bo'lgan ilk uch tilga quyidagicha ta'riflagan: **Turkiy** va **forsiy** hamda **hindi** asl tillarning manbaidurki, Nuh payg'ambar salavotullohi alayhaning uch o'g'lig'akim, **Yofas** va **Som** hamda **Homga** yetishur⁴. Mazkur izohdan ayon bo'ladiki, turkiy til Yofas avlodlari, ya'ni turlarning zaboni hisoblanadi. Moziyda uch⁵ bobo, asos va manba tildan tarqalgan dunyodagi hozirgi tillar davr o'tishi va oraliq masofaning uzoqligi bois ularning tovush tizimida keskin farqlanib qolgan va bir-biridan uzoqlashib ketgan.

Turkiy tillardagi unli va undosh tovushlar ko'pligi, talaffuzda bir-birini talab qilishi va o'zaro uyg'unlik tizimiga egaligi bilan boshqa tillardan farqlanadi. Ana shu o'zgacha, faqat turkiy tillarga xos moslashuv tizimi singormanizm qonuniyati deb nomlanadi. Til ilmidagi **singarmonizm** (yunoncha "syp" – "birga", "harmonia" – "ohangdoshlik") hodisasi⁶

¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. 3-томлик, 1-том. Тошкент: "Фан". 1960. 10-бет.

² Нурмонов Абдулхамид. Ўзбек тилшунослигининг тарихи. Тошкент: "Ўзбекистон", 2002, 39-бет.

³ Ат-тухфатул закияту фил луғатит турукия (Туруклар тили ҳақида ноёб нусха). Тошкент: "Фан". 1968. 9-бет.

⁴ Алишер Навоий. Мукамал асарлар тўплами. 20 томлик, 16-жилд. Тошкент: "Фан". 2000, 7-бет.

⁵ Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Тошкент: "Чўлпон". 1994, 31-бет.

⁶ Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: "Ўз МЭ". 2002, 87-бет.



soʻzning asosi va affiks tarkibidagi unlilarning oʻzaro uygʻunlashuvini bildiradi. Singarmonizm jarayonida soʻzdagi tovushlar va oʻzakka qoʻshimcha oʻzaro talaffuz jihatdan bir-biri bilan uygʻunlashadi. Qadimdan turkiy tillarda singarmonizمنىڭ ikki turi amalda boʻlgan: 1) tanglay uygʻunligi yoki palatal attraksiya; 2) lab uygʻunligi yoki labial attraksiya. **Tanglay uygʻunligi** soʻzdagi tovushlarning bir-biriga, qoʻshimchalarning oʻzakka hamda qalin-ingichkalikka asoslangan moslashuvdir. Masalan: **turuk**(turk), **qagʻan**//**xakan**(xoqon), **ilgarv**⁷ (oldinga), **ogʻuzgʻaru** (oʻgʻizga), **bapigʻ**(borish), **bilik**⁸ (bilim). Lab uygʻunligi birinchi boʻgʻindagi unliga keyingi boʻgʻindagi unlining yoki oʻzakdagi unliga qoʻshimchadagi unlining lablanish jihatdan moslashuvdir. Masalan: **ishig** (ishni), **kuchug** (kuchni), **inim** (ukam), **svmzv** (lashkarimiz)⁹. Singarmonizm hodisasi turkiy tillar uchun qadimiy, muhim va asosiy qonuniyat hisoblanadi. Ushbu hodisa qadimgi turkiy til va mumtoz oʻzbek tilida faol amal boʻlganini koʻrish mumkin. Hozir ham butun turlar tiliga manba boʻlgan **sof oʻkuzbek**//**oʻzbek**, **aralash oʻzbek**(oʻgʻuz) **lahjalarida**, **hozirgi qozoq** va **hozirgi turk tillarida** singarmonizm qonuniyati toʻliq saqlangan. Shoʻro hukumatining asosiy maqsadi turkiy tillarni qadimiy ildizidan ajratgan holda parchalash boʻlgan. Dunyoning qadim yozma manbalaridan boʻlgan Urxun-Enasoy yodgorliklarining gʻarbliklar va ruslarga, umuman, aloqasi yoʻqligi haqidagi achchiq haqiqatdan gʻazablanish alami ham bor edi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida ham **sof oʻzbek** (qipchoq) va **aralash** (oʻgʻuz) **lahjalari** taʼsirida unlilarning oʻzaro moslashishi uchraydi. M.: **ürmak**, **oʻrmoq**, **uchun**, **unum**, **butun**, **uzun**¹⁰ va boshqalar. Ushbu misollarda unli fonemalar qalin-ingichkalik va choʻziq-qisqalik qolipiga koʻra oʻzaro uygʻunlashgan¹¹.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida undosh tovushlarning jarangli-jarangli, jarangsiz-jarangsiz, sirgʻaluvchi-sirgʻaluvchi, portlovchi-portlovchi shaklida joylashuv qolipi asosida bir-biriga moslashishi mavjud.

Nutq tovushlari nutq aʼzolari ishtirokida hosil boʻluvchi eng kichik nutq birligidir¹². Fonemalar ogʻzaki nutqning eng kichik, boʻlinmaydigan qismi boʻlib, maʼnoni farqlash uchun xizmat qiladi. M.: **ona**, **opa**, **ota**, **ogʻa**. Fonema (yunoncha “rhonema” – “tovush”). Til moddiy tomonining eng kichik birligi, farqlovchi fonologik belgilarning barqaror yigʻindisi¹³. Fonemalarning uch tomoni bor: 1) talaffuz (fonologik); 2) tebranish (akustik); 3) vazifaviy (maʼno farqlash). Tabiiy (fizik) tovushlar maʼnoni oʻzgartira olmaydi, ketma-ket talaffuz qilinadi, lekin biror maʼno ifodalashi mumkin. M.: **paq-paq**, **pir-pir**, **shir-shir**.

Nutq aʼzolari nutq tovushlari hosil boʻlishida ishtirok etuvchi unsurlardir. Al-Forobiy nutq tovushlari, undosh tovushlarning paydo boʻlish oʻrni, unli tovushlarning xususiyatlari, tovush oʻzgarishlari va soʻzning fonetik meʼyori haqidagi izohlarni bayon qilgan¹⁴.

Inson tanasining boʻgʻiz qismida joylashgan **nutq aʼzolarining** ishlash faoliyatini jahonda birinchi bor tibbiyot ilmining ulugʻ olimi Ibn Sino oʻz asarida amaliy jarrohlik natijalariga tayangan holda ilmiy asoslab bergan. Abu Ali ibn Sinoning “Fonetika haqida risola¹⁵” asari yozilganidan soʻng tilshunoslik aniq ilmiy tahlilga asoslangan nazariy fanga aylandi. Ushbu asarda inson boʻgʻzi va tovush hosil qiluvchi aʼzolar anatomiyasi, tovushlarning paydo boʻlish sabablari ilmiy asosda bayon qilingan. Abu Ali ibn Sino mazkur

⁷ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент. “Ўқитувчи”, 1982. 89-бет.

⁸ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент. “Ўқитувчи”, 1982. 71-бет.

⁹ Абдурахмонов Ф., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент. “Ўқитувчи”, 1982. 11-бет.

¹⁰ Lafasov U.P. Til nazariyasi (Tilshunoslik). – Toshkent: “TDSHU”, 2023. 71-бет.

¹¹ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. Уч томлик. 1-том. Тошкент. “Фан”, 1960. 22-бет.

¹² Lafasov U.P. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: “TDSHU”, 2021. 77-бет.

¹³ Хожиев Азим. Тилшunoslik terminlarining izohli lugʻati. Тошкент: “ЎзМЭ”, 2002, 121-бет.

¹⁴ Нурмонов Абдулхамид. Ўзбек тилшunosligining tarixi. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2002, 11-бет.

¹⁵ Абу Али ибн Сино. “Фонетика хақида рисола” (“Асбоб худут ал-хуруф”/“Нутқ товushларининг ҳосил бўлиш сабаблари”) Тошкент: “Ўзбекистон”, 1979, 5-бет.



nazariyani asoslash uchun tovush, havoning to'liqlanishi, to'liqsimon harakat, to'qnashuv, portlash, to'liqsimon harakatning zarralarga bo'linishi, tovush tonining balandlik, tovush tonining og'irlik darajasi, sodda tovushlar, murakkab tovushlar, havoni to'suvchi kichik a'zo (organ), havo to'suvchi ulug' a'zo (organ), to'silgan havo mo'lligi, to'silgan havo ozligi, tovushning paydo bo'lish o'rni torligi, tovushning paydo bo'lish o'rni kengligi, tovush shaklining do'lmaloqligi, bo'g'iz, qalqonsimon kemirchak, tutash kemirchak, qopqoqsimon kemirchak, paylar va mushaklarning ahamiyatini aniq ko'rsatib bergan¹⁶. Tilshunos olim bu bilan inson bilan maymunning bo'g'iz qismida keskin farq borligini ilmiy asoslab bergan. Mazkur ilmiy dalil esa insonning maymundan kelib chiqmaganligini tasdiqlaydi.

Hozirgi davr til ilmida nutq tovushlari hosil bo'lishida ishtirok etish darajasiga ko'ra nutq a'zolari ikki asosiy turga bo'linadi: faol nutq a'zolar; nafaol nutq a'zolar¹⁷. Nutq a'zolari: nutq tovushlarini hosil qilishda ishtirok etadi. Bular: o'pka, bo'g'iz, tovush paychalari, og'iz bo'shlig'i, til, lablar, tishlar, jag'lar, tanglay va burun bo'shlig'i. Ular ikki xil bo'ladi: 1) faol organlar ishlamasa, biz umuman gapira olmaymiz. Bular: nutq (un) paychalari, yumshoq tanglay, til, pastki jag' va lablar; 2) nafaol organlar ishlamasa, biz tovushlarni buzib talaffuz qilamiz. Bular: qattiq tanglay, tish, yuqori jag' va burun bo'shlig'i. Nutq tovushlari ikki xil bo'ladi: a) unli fonemalar; b) undosh fonemalar. Mazkur fonemalar lingvopoetik vosita¹⁸ sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Turkiy tillar, jumladan o'zbek tilida unli fonemalarning talaffuzi muhim ahamiyatga ega, bu esa ularning lingvopoetik vosita sifatidagi muqim o'rnini belgilab beradi. Har qanday milliy tilning tovush tizimi o'zgachadir. Ana shu o'ziga xoslik o'zbek tiliga ham tegishli bo'lib, o'sha xususiyat uning jozibadorligini yana ham kuchaytiradi. Xassos adibimiz Abdulla Qodiriy milliy tilimizdagi hamma imkoniyatlardan foydalanib tasvirdagi lingvopoetik asoslarni yuqori darajaga olib chiqdi. So'zlashuvda unli va undosh fonemalarning talaffuziga tegishli jihatlar o'zining yorqin ifodasini topadi. Jonli tildagi bunday muhim nuqtalar yozuvchi tomonidan izlab topilgan hamda ulardan asarlarida foydalanilgan. Bizga ma'lumki, Abdulla Qodiriy madrasa ta'limini olgan,¹⁹ ya'ni arab va fors tili tovush tizimini yaxshi farqlagan. Tilimizdagi ohang bilan bog'liq nozik tovlanishlar ayniqsa, din ahllari nutqida yorqin namoyon bo'ladi. Adib ana shu sifatlardan kelib chiqqan holda o'zbek milliy tilining fonemalar bilan aloqador tomonlariga kitobxonning diqqat-e'tiborini qaratgan. Bu esa tasvirning yanada hayotiy, ishonarli bo'lishiga zamin hozirlagan. Yozuvchi ijod qilgan matnlarda fonemalarning lingvopoetik tabiatiga aloqador quyidagi fonetik hodisalarni kuzatish mumkin:

1. **To'liq assimilyatsiya**²⁰ so'zda bir fonema boshqa bir fonemani ham artikulyasiya o'rni, usuli, hamda akustikasi ko'ra bir xil qilib olishi. M.: – O'g'rilardan bitta(bir+ta)si tutildi, davlatlari yori bersa qolg'anlari ham ushlanur, deb o'ylayman (69-bet). – Amiri Umarxondek odil poshsho(pod+sho) bo'lsa, – dedi qutidor, – biz ham o'risdan oshib ketar edik²¹ (118-bet).

¹⁶ Абу Али ибн Сино. “Фонетика ҳақида рисола” (“Асбоб худут ал-хуруф”//“Нутқ товушларининг ҳосил бўлиш сабаблари”) Тошкент: “Ўзбекистон”, 1979, 9-бет.

¹⁷ Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: “ЎЗМЭ”, 2002, 71-бет.

¹⁸ Lafasov U.P. Nutq tovushlari lingvopoetik vosita sifatida. Ilm-fan xabarnomasi. Science bulletin. Вестник науки.

ISSN: 3030-3931. Volume 10, issue 1, Oktabr 2025. 537-549-betlar.

¹⁹ Шеркон Қодирий. “Қодирийни қўмсаб: Ёднома”. Тошкент: “Фан”, 1975. 4-бет.

²⁰ Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: “ЎЗМЭ”. 2002, 112-бет.

²¹ Қодирий Абдулла. Ўткан кунлар. Мехробдан чаён. Рўмонлар. Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат”. 1994.



2. **To'liqsiz assimilyatsiya**²² so'zda bir fonemaning ikkinchisini akustikasiga ko'ra bir xil qilib olishi. M: Chindan ham ul o'zini tanilmaslik darajada oldirg'an, o'lat tekkan kishilardek ko'zlari ichiga cho'kib ketkan (**ket+gan**) edi (223-bet).

3. **Progressiv** ("progressio" lotincha "oldinga qarab harakatlanish") assimilyatsiya. M.: – Siz muvofiq ko'rgan bir **ishka**(ish+ga) qarshi tushib, ra'yingizni qaytara olmayman, – dedi ko'b o'ylag'andan keyin Oftob oyim... (46-bet).

4. **Regressiv** ("regressio" lotincha "orqaga qarab harakatlanish") assimilyatsiya. M.: Sultonali mirzo shu jumla ustida o'yladimi yoki boshqacha bir andisha uni mashg'ul etdimi, baharhol, birar daqiqa chamasi so'**zsiz** (so'**ssiz**) xayol surib qoldi (551-bet).

5. **Eliziya**²³ ("elisio" lotincha "siqmoq") so'zlarda va ismlardagi fonema(lar)ning tushishi. M.: Akram hoji **elli** (ellik) besh yoshlar orasidag'i **bir kekxa** edi (14-bet). "moltopar savdodan qaytibti... hali baquvvat, ish qilib yamoqqa charchamasang yana o'n yillingmi, **Mamarayim (Muhammad Rahim)!**" deb kulishadirlar (389-bet).

6. **Akkomodatsiya**²⁴ ("accomodatio" lotincha "muvofiqlashuv") yonma-yon kelgan undosh va unli fonemalar artikulyasiyasining bir-biriga uyg'unlashuvi. M.: Marg'ilon Turkistonimiznin **to'qug'uchilik** (to'quvchilik) hunarida birinchi shahridir (10-bet).

7. **Alliteratsiya**²⁵ ("ad" lotincha "old", "-ga" + "litera" – "harf") misralar, undagi so'zlar boshida bir xil undosh fonemalarning takror qo'llanishi: **Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho'chib qochishlar** (24-bet). Panjshanbalik bo'lsa maktabning asos haqqi va bulardan boshqa **"Qo'lyog'a quymoq – Ammaa bo'g'irsoq – Yosinga yupqa"** degan gaplar ham bo'lar edi (391-bet).

8. **Metateza**²⁶ ("metathesis" yunoncha "o'rin almashtirish") og'zaki nutqda yonma-yon kelgan undosh fonemalarning o'rni almashishi. M.: – Yurgan daryo, o'lturgan **bo'ryo** (bo'yra) emish, – dedi Akram hoji (17-bet). Ayrim adabiyotlarda shu fonetik hodisaga misol sifatida berilgan **mizoj** (temperament), **mijoz** (klient) so'zlari aslida o'zbek tilida mavjud paronim so'zlar hisoblanadi. Abdulla Qodiriy ushbu paronimlarni juda yaxshi farqlagan. – Menga sizning **mizojingiz** kerak emas... O'zingiz!.. – dedi va yig'lab yolg'or holda Otabekning quchog'ig'a o'zini tashladi (308-bet).

9. **Epifora**²⁷ ("epiphora" yunoncha "epi" – keyin, "phoros" – keluvchi) parallel tuzilgan nutq parchalari oxirida aynan bir unurning takrorlanishidan iborat nutq parchasi. M.: Yog'lar to'kilsa yerga yotib yalar **taqsirim**, Bo'lsa bozorda pastlik sotib olar **taqsirim** (397-bet). Ochilmay so'lsa har gul g'unchasi piru juvon **yig'lar**, Emas piru juvon, balki hamma ahli jahon **yig'lar** (423-bet).

10. **Reduplikatsiya**²⁸ ("reduplicatio" lotincha "ikkilanish") so'zni takror shaklda qo'llash, takroriy so'z hosil qilish usuli: Tag'i umi-boshqami – xudo bilsin, **shatir-shutir** qildi-da, chiqib ketdi (33-bet). Oftob oyim **kula-kula** To'ybekaning Otabek to'g'risida so'zlagan gaplarini va Kumush bilan bo'lg'an mojarosini so'zlab chiqdi (34-bet). O'zbek oyim ham uni mahkam siqib quchoqlab olg'an, yuzidan **shap-shap** o'pib aylanib, o'rgular va **tikilib-tikilib** nima uchundir yig'lar edi... (311-bet) Shundan so'ng **nikoh-nikohda, osh-oshda** qolib kuyavni qidirib ketkanlar (227-bet). Sodiqlarning yo'lagiga quloq solib **g'o'ng'ir-g'o'ng'ir** kelgan tovushni eshitdi va **sekin-sekin** yo'lg'a tushdi (244-bet).

²² Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: "ЎзМЭ". 2002, 112-бет.

²³ Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: "ЎзМЭ". 2002, 133-бет.

²⁴ Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: "ЎзМЭ". 2002, 11-бет.

²⁵ Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: "ЎзМЭ". 2002, 12-бет.

²⁶ Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: "ЎзМЭ". 2002, 63-бет.

²⁷ Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: "ЎзМЭ". 2002, 134-бет.

²⁸ Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: "ЎзМЭ". 2002, 84-бет.



11. **Proteza**²⁹ (“prothesis” yunoncha “oldida turuvchi”) o‘z boshida bitta unlining ortirilishi. M.: ro‘mol – o‘ramol. M.: Ipak ro‘moli boshida. Aslida turkiydagi **o‘ramol** (o‘ramoq va mato so‘zining qo‘shiluvidan yuzaga kelgan, yuzni o‘raydigan mato). Forslarda **ro‘ymol** (ro‘y/yuz va mato so‘zlarining qo‘shiluvidan yuzaga kelgan, yuzni yopadigan mato). Abdulla Qodiriy bu o‘rinda forscha so‘zni qo‘llagan. M.: O‘lturishi bilan kuchlik shamol yurib boshidag‘i **ro‘ymolini** uchurdi va olib borib Anvarning betiga yopti (475-bet).

12. **Reduksiya**³⁰ (“reductio” lotincha “qisqartmoq”) o‘zning birinchi bo‘g‘inidagi unlining qisqa talaffuz qilinishi yoki ikkinchi bo‘g‘indagi unlining tushib qolishi. M.: oq nozik qo‘llari bilan latif **burnining** o‘ng tomonida...(29-bet) Choyni ichib bo‘lg‘andan keyin qutidor fотиha o‘qub **o‘rnidan** turdi (30-bet).

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, Abdulla Qodiriy o‘zbek milliy tilidagi fonemalarning lingvopoetik tabiatini fonetik hodisalar bilan bog‘lagan holda izohlagan. Bu esa yozuvchining milliy tilimiz talaffuzidagi nozik jihatlarini juda yaxshi bilganligini, ularni har tomonlama chuqur o‘rganganligini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Махмуд Кошғарий. Девону луғатит турк. 3-томлик, 1-том. Тошкент: “Фан”. 1960. 499 бет.
2. Нурмонов Абдулҳамид. Ўзбек тилшунослигининг тарихи. Тошкент: “Ўзбекистон”, 2002, 232 бет.
3. Ат-тухфатуз закияту фил луғатит турукия (Туруклар тили ҳақида ноёб нусха). Тошкент: “Фан”. 1968. 228 бет.
4. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик, 16-жилд. Тошкент: “Фан”. 2000. 245 бет.
5. Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. Тошкент: “Чўлпон”. 1994, 352 бет.
6. Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: “Ўз МЭ”. 2002, 168 бет.
7. Абдурахмонов Ғ., Рустамов А. Қадимги туркий тил. Тошкент. “Ўқитувчи”, 1982. 167 бет.
8. Lafasov U.P. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: “TDSHU”, 2021. 220 бет.
9. Абу Али ибн Сино. “Фонетика ҳақида рисола” (“Асбоб худут ал-хуруф”//“Нутк товушларининг ҳосил бўлиш сабаблари”) Тошкент: “Ўзбекистон”, 1979. 21 бет.
10. Lafasov U.P. Nutq tovushlari lingvopoetik vosita sifatida. Ilm-fan xabarnomasi. Science bulletin. Вестник науки. ISSN: 3030-3931. Volume 10, issue 1, Oktabr 2025. 537-549-betlar.
11. Шеркон Қодирий. “Қодирийни қўмсаб: Ёднома”. Тошкент: “Фан”, 1975. 68 бет.
12. Қодирий Абдулла. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён. Рўмонлар. Тошкент: “Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат”. 1994. 656 бет.

²⁹ Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: “ЎзМЭ”. 2002, 82-бет.

³⁰ Ҳожиёв Азим. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Тошкент: “ЎзМЭ”. 2002, 84-бет.